






YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yil yanvar-mart oylarida Buxoro viloyatining ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YAHM) ning hajmi 18 176,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025-yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 9,6 foizga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 4,1 foizga yetdi.



2025-2026- yillarning yanvar- mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari


		Mlrd. so'm		o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2025-yil	2026-yil	
	I. YAHM	15 214,0	18 176,9	109,6
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 771,6	17 677,3	109,5
	Mahsulotlarga sof soliqlar	442,4	499,6	114,1
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 771,6	17 677,3	109,5
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 821,0	3 304,8	106,0
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 873,7	6 037,6	112,7
	sanoat	3 345,2	4 137,0	108,2
	qurilish	1 528,5	1 900,6	122,5

		Mlrd. so‘m		o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2025-yil	2026-yil	
	Xizmatlar	7 076,9	8 334,9	108,7
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2 697,4	3 182,2	111,8
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 144,1	1 426,7	111,3
	boshqa xizmat tarmoqlari	3 235,4	3 726,0	105,3

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 8 616,3 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 108,1 foizga yuqoridir.



2025-2026- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘shish sur‘atlari
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,3 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,7 foizini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 18,7 foizni, sanoat tarmog‘ining ulushi 23,4 foizni, qurilish sohasida 10,8 foizni va xizmatlar sohasi 47,1 foizni tashkil qildi.




**2025-2026- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo‘yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**

		<i>2025- yil</i>	<i>2026- yil</i>
	I. YAHM	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	97,1	97,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,9	2,7
	II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	19,1	18,7
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	32,9	34,2
	sanoat	22,6	23,4
	qurilish	10,3	10,8
	Xizmatlar	48,0	47,1
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	18,3	18,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,7	8,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	22,0	21,0




2025-2026- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


2025 - yil




2026 - yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 106,0 foiz (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi (18,7 foiz), sanoatda 108,2 foiz (23,4 foiz), qurilishda 122,5 foiz (10,8 foiz), xizmatlar sohasida 108,7 foizni (47,1 foiz) tashkil etdi.




2025-2026- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026-yilga YAHM deflyatori indeksi 2025-yildagi narxlarga nisbatan 109,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat sohasida 114,3 foiz va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 110,5 foiz qayd etildi.



2025-2026- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-2026- yillarning yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2025- yil

- 9 766,9 mlrd so'm
- 66,1 %

2026- yil

- 11 541,3 mlrd so'm
- 65,3 %

2026- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 11 541,3 mlrd so'm (2025- yilning yanvar-mart oylarida 9 766,9 mlrd so'm) ni tashkil qildi. YAHMdagi ulushi 65,3 % (2025- yilning yanvar-mart oylarida 66,1 %) ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Yalpi hududiy mahsulot – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

Aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot – muayyan davrda joriy narxlardagi Yalpi hududiy mahsulot hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo'shilgan qiymat – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) hamda ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

Mahsulotlar uchun soliqlar – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar hamda boshqalar kiradi.

Mahsulotlar uchun subsidiyalar – davlat budjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar).

Mahsulotlar uchun sof soliqlar mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

Yalpi hududiy mahsulot fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati) doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri Yalpi hududiy mahsulotni (real Yalpi hududiy mahsulot), joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.

Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi - iqtisodiyotda narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal Yalpi hududiy mahsulotning (joriy narxlardagi hisobot davri Yalpi hududiy mahsulot) real Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.